

Yarmatova Mexriniso Azamatovna
katta o'qituvchi
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika
universiteti NTM

MAQOLLARDA HAYVONLAR OBRAZLARINING TASVIRI

Annotatsiya: Maqolada, hayvonlarni nomi keltirilgan maqollar o'z aksini topgan. Ana shu hayvonlarning har biri timsol qilib olinib, ular vositasida muayyan sifatlar (ijobiy, salbiy) kishilarning obrazlari gavdalantirilgan.

Kalit so'zlar: maqol, hayvon nomlari, timsol, zoonimlar, obraz.

Аннотация: В этой статье отражены пословицы о животных. Каждое из этих животных олицетворялось, и через них воплощались образы людей определенных качеств (положительных или отрицательных).

Ключевые слова: пословица, названия животных, символ, зоонимы, образ.

Abstract: This article reflects the proverbs about animals. Each of these animals was personified, and through them images of people of certain qualities (positive or negative) were embodied.

Keywords: proverb, animal names, symbol, zoonyms, image.

Ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy "Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko'rindi", - degan edi. Darhaqiqat, maqollarda ota-bobolarimiz bosib o'tgan yo'lni, kechirgan turmushlarini, shodliklarini va chekkan azob-uqubatlarini ajdodlarimizning urf-odatlarini, an'analarini ko'ramiz, his etamiz.

V. Dalning maqol va matallar haqidagi ta'rifi o'ta to'liq aniq va ifodalidir: "Maqollar to'qilmaydi. Sharoit taqozasiga ko'ra yaratiladi va qalb isyonini yoki da'vati sifatida yaratiladi."

"Xalqimizning boshidan kechirgan barcha kechinmalari, ko'p asrlik urushlari o'z aksini topgan folklori o'rganish juda muhimdir. Chunki u xalqimizning shu kunlardagi ruhiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi." (G'afur G'ulom)

Maqollar xalqning turmush jarayonlari, mehnat faoliyatları, tabiatni kuzatish va madaniyatları asosida yuzaga kelgan.

Maqollarni o'rganish nutq madaniyatini o'stirishga yordam beradi. Tilning milliy xususiyatlarini o'zida mujassam etadigan maqollar o'z ichiga xalqning boy tarixiy an'analarini, mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ko'rinishlarini va insonlarning hayoti va madaniyatini oladi.

Tilimizda hayvon nomlari bilan ifodalangan maqollar, frazeologik birliklar ko'p uchraydi. Hayvonlarni kuzatish natijasida tashkil topgan maqollar o'ziga xos bo'lib, katta o'rin egallaydi. Bu maqollar yordamida atrofimizdag'i olam, predmet

va narsalarning obrazli emotsional tasviri, harakatlar va belgilar aniq va chiroysi tarzda ochib beriladi.

Ular insoniyat taraqqiyotining doimiy yo'ldoshlari bo'lmish hayvonlarni kuzatish natijasida yuzaga keladi va xalqning yillar davomida yig'ilgan til boyligi hisoblanadi. Ularning kichik aniq forma va ish harakati asosida chuqur ma'no yotadi. Ayrim olimlar ushbu maqollarni oz ilmiy ishlarida zoonimlar deb yuritishadi.

Zoonimlar hayvonlar dunyosining tashqi ko'rinishi va xususiyatlariga bog'liq bo'lган obrazli metoforik negizida kishilarning metoforik xarakterini yoki qandaydir harakatning ko'rinishini o'z ichiga oladi.

U yoki bu maqolning ko'chma ma'nosini, unda nima deyilmoqchi bo'layotganini aniqlash uchun maqolda keltirilgan obrazlarning mohiyatini to'g'ri anglamoq kerak xalq og'zaki ijodining ko'pchilik janrlarida, jumldadan, maqollarda xalq jamiyatidagi munosabatlar, hodisa va holatlarni soddaroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o'z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli hayvonlar obrazidan ustalik bilan foydalanadi. Ana shu hayvonlarning har birini timsol qilib olib, ular vositasida muayyan sifatlariga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo'lган kishilarning obrazini gavdalantiradi.

Eshak va xo'kizni, befahm, befarosat dangasalarga tashbeh qilinadi:

Qanoat aylagan shox-u jahondur,

Tama qilgan eshakdan ham yomondir.

Arpaning ichida kesak bor,

Yomonning ichida eshak bor.

Xarakash eshak yo'lga yaramas.

Eshagiga yarasha tushovi.

Eshagidan tushovi qimmat.

Eshak ishi bilan kuchli,
To'ng'iz – tishi bilan.

Eshakka ergashgan kulga ag'nar.

Echkini - ayyorlarga, yengil tabiatlilarga tashbeh qilinad:

Echkining o'lgesi kelsa, cho'ponning
tayog'iga suyanar.

Echkining yog'i bo'lmas,

Eshakka xudo shox bersa, hammani
suzadi,

Tuyaga xudo qanot bersa, tomingni
buzadi.

Yotgan xo'kiz somondan quruq
qoladi.

Xo'kiz bo'lib, buzoq odatingni
qilmagin.

Yer qattiq bo'lsa, xo'kiz xo'kizdan
ko'rар.

Echkini ajali etsa, qassobni suzar.

O'zini aka degan,
Echkisini taka der.

Echki yugurib – kiyik bo'lmas.
Echkida et yo'q, orsizda – bet.

Bo'ta, buzoq, to'y, qulun, qo'zi, uloq, kuchuk, xo'tik, poloponni – bolalarga tashbeh qilinadi:

Buzoqni bo'sh qo'ysang, xurmachani ag'darar.

Buzoq somonxonani bo'shatar,
Bola – nonxonani.

Buzoq ko'p emsa bo'kadi, bo'sh qo'ysang to'kadi.

Bo'ladigan buzoq tezagidan ma'lum.

Ensasi qotgan bittadan ham qoladi.

Yaxshi buzoq ikki onani emadi,

Itni-ochko'z, tamagir, urishqoq, kaltafahm, ahmoq, dangasa va shu kabi insoniy illatlarga ega bo'lgan kishilarga tashbeh qilinadi:
Itni siylasang, to'rga o'tar.

Itni suyak bilan ursang, qopmas.

Itni ursang, aldab ur.

Itning ajali etsa, mehrobga o'tirar.

Itdan suyak kutma.

It qorni to'ygan uydan ketmas.

Bo'rini – qonxo'r, zolimlarga tashbeh qilinadi:

Bo'rining bolasini bo'rkingda boqsang ham, el bo'lmas.

To'y bo'risiz bo'lmas,
To'qay arslonsiz bo'lmas.

Bo'ri qarisa ham bitta qo'yga kuchi etar.

Dasht bo'risiz bo'lmas,
El o'g'risiz.

Bo'ri bo'ronda quturar.

Sen bo'rini ayasang,
Bo'ri seni talaydi

Tulkini - ayyor, ikkiyuzlamachilarga tashbeh qilinadi:

Bir tulki etti bo'rini yetaklar.

Bir talkining hiylasi necha yerda pand berar.

Ko'z bo'yamachi tulki bo'lar,
El ichida kulki bo'lar.

O'xshamagin talkiga,
Qolarsan ko'p kulkiga.

Hayvonlar ichida ayyori – tulki,
Ma'nisiz g'iybatning oxiri – kulki.

Tulki bo'ridan to'qroq yashaydi.

Quyonni – qo'rqoqlarga tashbeh qilinadi:
Quyon o'z ko'lankasidan ham qo'rkar.

Quyon bolasini botirim der,
It bolasini qoplonim der.

Osilmagan qozonga otilmagan quyon tushar.

No'noq mergan oqsoq quyon izlar.

Sichqon, kalamush, chumchuq, chigirtkani – tekinxo'r va zararkunandalarga (ayrim hollarda sichqonni - mazlumlarga) tashbex qilinadi:

Supraga tushgan sichqonning
Boshi oqarmay qolmas.

Dushmaning sichqoncha bo'lsa ham,
Beparvo bo'lma.

Ikki sichqon biriksa,
Yo'lbars quyrug'in kertar.

Dushmaning sichqoncha bo'lsa ham,
Kuching arsloncha bo'lsin.

Tegirmonda tug'ilgan sichqon,
Momaqaldoiroqdan qo'rmas.

Hiyla bilan arslon tutilar,
Kuch bilan sichqon tutilmas.

Vaqti kelsa, fil sichqondan qo'rkar.

Chumolini-mehnatkash, mazlumlarga tashbeh qilinadi;
Chumoli iniga cho'p tiqma.

Chumolining sovg'asi – chigirtkaning oyog'i.

Qurbaqani - ishyoqmas, dangasa, quruq, maqtanchoqlarga tashbeh qilinadi:

Ovloq ko'lda baqa xon.

Qurbaqada qomat bo'lmas,
Kambag'alda omad bo'lmas.

Chumolidan qurbaqa xayr so'rabdi.

Oyda ham dog' bor,
Ko'lda – qurbaqa.

O'ush yo'q joyda qurbaqa ham
bulbul.

Loysiz suv, qurbaqasiz ko'l bo'lmas.

Xalqimiz sherni-mard, dovyurak, botirlarga tashbeh qiladi:

Sher bolasi ovni engar,

Er bolasi – yovni.

Sherning o’ligi ham ot hurkitar.

Sher izini it bosmas.

Gungqarg’a bo’lib ming yil
yashagandan,

Zo’r ovchi sher otar.

Sher bo’lib bir yil yashagan afzal.

Sherning urg’ochisi ham sher.

Tuya - el – yurt og’alariga, buzruklariga, shuningdek kuchli, chidamli sabot-matonatli, ba’zi hollarda esa takabbur kishilarga tashbeh qilinadi:

Tuyani tuya desa,

hamma erni payhon qilar.

Yomon yo’ldan yurgan tuya cho’kar.

Dushmaning kuya bo’lsa ham, tuya
bil.

Tuyaning dumi kalta bo’lsa ham,
tulkidan dum so’ramas.

Ignadek teshikdan tuyadek sovuq
kirar.

Tuya mingan uzoqni ko’zlar,
Eshak mingan – yaqinni.

Barcha yukni ko’targan tuya,
Cho’michni ham ko’tarar.

Yuvosh tuya yulishga yaxshi.

Umuman insoniyat yaratgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy normalardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o’z aksini topgan.

Zoonimlar kuchli obrazlikka ega bo’lib, nafaqat jonli muloqat tilida, balki badiiy adabiyotda ham kishilarning jismoniy xarakteri, ruhiy, axloqiy, ijtimoiy, tashqi ko’rinishi, ichki kechinmalari, hissiyotlari, kayfiyati va boshqa xususiyatlarni mukammal, ochiq oydin yoritib berishda keng qo’llaniladi.

Adabiyotlar

1. O’zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzaev, A. Musoqulov. – T.: “Sharq”, 2005.
2. O’zbek xalq maqollari. Ma’sul muharrirlar: T. Mirzaev, B. Sarimsoqov T. “Fan”, 1987
3. Sh. Shomaqsudov. Sh. Shorahmedov Hikmatnoma, T.

4. Ермолов А. С. Народная сельско-хозяйственная мудрость в пословицах, поговорках и приметах. Т. 1-4.-СПб., 1901; 1905.
5. Karamatov N.S Maqollar Toshkent. "Mehnat" - 2000
6. М. Садикова. Узбекско-русский словарь пословиц и поговорок - Ташкент "Ўқитувчи" 1993.